

**Paxtakor tumani Axborot-kutubxona  
markazi 27-mart**

**Xalqaro teatr kuni munosabati bilan  
axborot-bibliografiya xizmati tomonidan  
taroyyorlangan**


# **Eslatma**

**PAXTAKOR TAKM**

**Teatr** ([yunoncha](#) θέατρον - "tomoshagoh") cheklangan joyda bir yoki bir necha [aktyorlar](#) ijro etadigan [sahna ko'rinishi](#) orqali tomoshabinga fikr uzatuvchi [san'at janridir](#). Ba'zan teatr tomoshalari o'tkaziladigan binolarni ham *teatr* deb atashadi (aslida ularni *teatr binosi* deb atash o'rini).

**Teatr** (yun. *theatron* — [tomoshagoh](#)) — [san'at](#) turi; uning o'ziga xos ifoda vositasi - [aktyorning omma](#) oldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san'atida ham boshqa san'atlarda bo'lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og'zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi.

Teatr sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at, raqs, me'morlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatrning muhim vositalaridan biri sahna nutqidir. Aktyor qahramonning pyesadagi so'zlarini o'zlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarda turib uning nutqiy tavsifini yaratadi, boshqa personajlar bilan muloqotga kirishadi. [Sahna nutqi](#) xarakterlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktining yoritilishida muhim o'rin tutadi (qarang [Sahna nutqi](#)). Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassomligi (ssenografiya)ning hissasi katta. Rassom asar mazmuni va rejissyor yechimidan kelib chiqib, dekoratsiya yaratadi. (qarang [Teatr dekoratsiyasi san'ati](#)). Teatrda musiqaning ham o'rni katta, tomosha turi va janriga bog'liq holda u turli vazifani bajaradi: dramatik spektakllarda yordamchi vosita bo'lsa, operetta, musiqali dramada so'z bilan barobar huquqga ega, opera va baletda esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. (qarang [Teatr musiqasi](#)).



Teatr san'ati uzoq tarixga ega bo'lib, uning asosiy unsurlari (boshqa qiyofaga kirish, dialog, to'qnashuv kabi) insoniyatning ibtidoiy davrlarida ovchilik, mehnat va liniy marosim, bayramlar bilan, totemizm, animizm kabi ibtidoiy dunyoqarash va ajdodlarning ruhlariga sig'inish bilan bog'liq holda shakllangan. Yunoniston,

Hindiston, Turonda mil. avv. V asrdayoq Teatr jamiyat hayotida muhim o‘rin tutgan. Hindistonda teatr sanskrit teatri, xalq teatri shakllarida hamda "Mahobhorat" va "Ramayana" dostonlari bilan bog‘liq holda rivojlangan; dramaturgiya va sahna san’ati haqida "Natyashastra" nomli risola yaratilgan. Keyinroq teatr Yaqin Sharq va Rimga ham yoyildi. Ayniqsa, Rimda teatrning yangi shakl va turlari yaratildi. G‘arbiy Yevropada teatr san’atining dastlabki namunalari sayyor aktyorlar jonglyorlar ijodida, Rossiyada skomoroxlar faoliyatida yuzaga kelgan. Uyg‘onish davrida vujudga kelgan drama yangi shakldagi professional trning shakllanishiga zamin yaratdi. XVI asrdan opera, XVIII asr o‘rtalaridan balet, XIX asr o‘rtalaridan operetta mustaqil teatr turi sifatida rivojlana boshladi. Teatrning keyingi taraqqiyoti klassitsizmning keng yoyilishi bilan bog‘liq. XVIII asr da ma’rifatchilik oqimidagi teatr taraqqiy etdi. Astasekin realistik tendensiya kuchaydi. Ayniqsa, K. Goltsoni, G. Lessing, P. Bomarshe, F. Shiller ijodida realizm yorqin namoyon bo‘ldi. XVIII asrning oxirlariga kelib, drama, melodrama, vodevillarda satirik yo‘nalishning yuzaga kelishi teatrda demokratik asosning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Teatr g‘oyaviy va badiiy kurashlar maydoniga aylandi.

XIX asrning 1-yarmida vujudga kelgan romantik yo‘nalish teatrda gumanistik ideallar va ko‘p hollarda xayoliy orzularning yoritilishiga olib keldi. Dramada taqlidgo‘ylikdan iborat klassitsizmga qarshi, o‘ziga xos milliylik, xalqchillik, tarixiylik va ijtimoiy adolat uchun kurash ohanglari keng quloch yoydi. XIX asr oxirlaridan teatrni isloh qilishning yangi davri boshlandi. Teatr badiiy adabiyot (proza, poeziya), yangi drama (A. Chexov, G. Ibsen, B. Shou va boshqalar) bilan yaqinlashdi. XIX asr oxirlarida XX asr boshlarida teatrda, aktyorlik san’atida yangi ta’lim uslubi Stanislavskiy sistemasini qo‘llash boshlandi. 20yillarda V. Meyerxold, V. Tairov, V. Vaxtangovlarning rej.lik faoliyati teatrning rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘sildi. XX asr o‘rtalarida G‘arb rejissurasi va sahna san’atiga B. Brexning ijodiy uslubi katta ta’sir ko‘rsatdi. Zamonaviy teatr dunyo teatrining demokratik, xalqchil an’analarini muttasil o‘zlashtirib borishi, sahnnaviy talqinlarning rangbarangligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston hududida an’anaviy teatr juda qadimiyligi va boydir tarixga egadir. Uning kurtaklari ibridoiy jamoa davridayoq ov va boshqa mexnat jarayoni aks etgan taqdidiy raqslar, jangovar va xalq o‘yinlari, tabiat kuchlariga topinish oqibatida yuzaga kelgan marosimlar shaklda namoyon bo‘lgan. Mil. avv. VII—VI-asrlardayoq Turonda zardushtiylik va uning muqaddas kitoblar to‘plami — Avesto bilan bog‘liq 2 toifa — kulgili va qayg‘uli tomoshalari shakllangan. Yunon — Baqtriya podsholigi davrida Oyxonim, Niso, Shahri G‘ulg‘ulada maxsus teatrlar bo‘lib, ularda Yevripidning "Alkesta", "Ippolit" kabi tragediyalari ko‘rsatilgani ma’lum. Mil. avv. I asrdan mil. IV asrgacha Kushon davlatida Buddha dini bilan bog‘liq turli teatrlashgan tomoshalar mavjud bo‘lgan. Ayritom ibodatxonasi peshtoqidagi cholg‘uchi qizlarning tasvirlari shuni ko‘rsatadi. Asta-sekin Turon teatr san’ati diniy marosimlar qobig‘idan chiqib, dunyoviy mazmun kasb etadi — inson hayoti, ijtimoiy munosabatlarni tasvirlashga e’tibor kuchayadi. VI—VII-asrlar Turon mulkidan chiqqan cholg‘uchilar, aktyor va raqqosalar Buyuk ipak

yo‘li orqali qo‘shti yurtlarga ijodiy safar qiladilar. IX—XII-asrlarda xalq bayramlari, marosimlari, urf-odatlari va ular bilan bog‘liq tomoshalar tiklanibgina qolmay, aholi orasida keng tarqaldi. Masxara va taklid Teatr rivojlandi. Amir Temur davlati davri (XIV— XV-asrlar)da Teatr san’atida keskin yuksalish ro‘y berdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixolarning ma’lumotlaricha, bu davrda poytaxt — Samarqandda va boshqa nufuzli shaharlarda teatrlashgan tomoshalar uyushtirilgan. An’anaviy teatr va boshqa san’at tomoshalari, ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida (1394—1449) Movarounnahrda, Husayn Boyqaro davrida (1469— 1506) Xurosonda taraqqiy topdi. G‘iyos masxara, Xoja Dexdor, Abdulla Devona, Abdulvose’ Munshi, Sayd Badr kabi teatr san’atining atoqli namoyandalari faoliyat ko‘rsatgan. An’anaviy teatrning kulgili turlari (masxara, taqlid, zarofat), qo‘g‘irchoq o‘yin (chodir jamol, chodir xayol, fonus xayol) badiiy tomosha tizimi sifatida tashkil topdi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida teatrning asosiy turlari saklanib, repertuar va ijro uslubida o‘ziga xos xususiyatlar rivojlandi. Shaharlarda ijobchi san’atkorlarning kasabai sozanda (mextarlik) degan uyushmalarining faoliyati kuchaydi. Xorazmda "Xatarli o‘yin", "To‘kma" tomoshalari keng yoyildi. Farg‘ona vodiysi va Toshkentda qiziqchilik va askiya taraqqiy etdi. XIX asrning 2-yarmida Qo‘qonda Zokir Eshon boshliq 30 ga yaqin qiziqchilar to‘dasi, Buxoroda Tula masxara boshliq 20 ga yaqin masxarabozlar to‘dasi shuxrat qozondi.

Keyinchalik o‘zbek madaniyatining ilg‘or namoyandalari (Furqat, Behbudiy, Avloniy va boshqalar) rus, tatar va ozarbajon teatr truppalari tomoshalariga qiziqish bilan qarab, mahalliy ziyolilarni ulardan o‘rganishga chaqirdilar. Shu tarzda yangi milliy teatr yaratish harakati yuzaga keddi. 1914-yil Samarqand (15 yanvar) va Toshkent (27 fevral) da "Padarkush" dramasini sahnalashtirish bilan yangi o‘zbek teatri o‘z faoliyatini boshlaydi. Ayniqsa, A. Avloniy rahbarligida "Turon" teatrining 1915-yil O‘zbekiston shaharlariga qilgan ijodiy safarining ahamiyati katta bo‘ldi. 1916-yil Hamza Qo‘qonda teatr tuzdi. Birin-ketin Andijon (1919), Xiva (1922), Buxoro (1922)da teatrlar tashkil qilindi. 1918-yildan Mannon Uyg‘ur "Turon" teatri (hozirgi O‘zbek milliy akademik drama teatri)ga rahbarlik qilib, uning professional teatrga aylanishida, repertuarini tuzish, ijro uslubini yaratishda muhim rol o‘ynadi. Teatrning birinchi bo‘g‘in aktyor va rejissyorlari 1924— 27 yillar Moskvada O‘zbek Maorif uyi qoshida ochilgan dramstudiyyada tahsil olishgan. 20yillar so‘ngida Rus yosh tomoshabinlar Teatri (1928), O‘zbek yosh tomoshabinlar Teatri (1929) tashkil topdi. Keyinroq Namangan (1931), Qashqadaryo (1932), Surxondaryo (1935) viloyati teatrlari, o‘nlab tuman va shahar teatrlari yuzaga keldi. Toshkent va Samarqandda Davlat rus drama teatri (1934, 1938). Respublika ko‘g‘irchoq teatri (1939). Navoiy nomidagi davlat opera va balet teatri (1939) o‘z faoliyatini boshladi, shu yili Davlat komediya teatri tashkil bo‘ldi va u bir yil o‘tib Mukimiy nomidagi Respublika musiqali drama va komediya teatriga aylantiriddi.

Ikkinci jahon urushi yillarda Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov shaharlaridan ko‘chib kelgan teatrlar mamlakatimiz shaharlarda o‘z faoliyatini olib bordi. 50—60yillarda Hamza nomidagi akademik drama teatri va boshqa teatrlarda turli

mavzu, sermazmun, ijtimoiypsixologik, maishiy va falsafiy, rangbarang uslubda spektakllar sahnalashtirildi. 1968-yil "Yosh gvardiya" teatri (hozirgi Abror Hidoyatov nomidagi O'zbek davlat drama teatri) tashkil qilindi.

70—80yillar teatrda ziddiyatli davr bo'ldi; bir tomonidan, milliy an'analarga e'tibor kuchaygan bo'lsa, ikkinchidan, dabdababozlik, hayotni xaspo'shlab ko'rsatish avj oldi. 1976-yil "Ilhom" teatrstudiysi ish boshladı. 1986-yil Respublika Satira teatri tashkil topdi. 80yillarning 2-yarmida hayotni haqqoniy aks ettirish, janrlar rangbarangligi, tomoshaviylikka intilish mayllari yuzaga kelib, asta-sekin kuchayib bordi. Bu davrda Abror Hidoyatov nomidagi teatr yetakchi o'ringa chiqib oldi.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingach, o'zbek Teatri hayotida ham yangi davr boshlandi. Istiklol tufayli milliy merosga tayanib ijod qilish, milliy qadriyatlar, an'analarni tiklashga intilish jiddiy tuye oldi. Bu davrda o'zbek Teatrda quyidagi ilg'or tendensiyalar, ijodiy izlanishlar ko'zga tashlanadi: birinchidan, Teatrlar repertuarida tarixiy mavzuning salmog'i oshdi. Buyuk ajdodlarimiz — allomalar, shoirlar, davlat arboblari, lashkarboshilarning hayoti va taraqqiyot uchun kurashini yorituvchi o'nlab sahna asarlari yaratildi. Sahnalarda sho'rolar davrida hatto tilga olish man etilgan Bahouddin Naqshband, Hakim at-Termiziy, Imom al-Buxoriy kabi allomalar, "Avesto" kitobi asosida Zardushtiy hayotini yorituvchi sag'na asarlari vujudga kelib, davrimiz tomoshabinlari ma'naviyatini boyitdi, tarixiy, diniy e'tiqodga nisbatan qarashlarni o'zgartirdi. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar haqida yaratilgan 20 ga yaqin sahna asarlari ma'naviy va madaniy hayotimizda katta voqeа bo'ldi. Ikkinchidan, zamonaviy o'zbek Teatrda tasavvuf bilan bog'liq "Muqabbat sultonи", "Mashrab" (Milliy teatr), "Xitoy malikasining siri" (rus teatri), "Umar Xayyom", "Ato etilgan muhabbat tariqati" (O'zbekiston yoshlar teatri), "Na falakman, na farishta" (Muqimiyl teatri), "Shayh san'on", "Raqsu samo'" ("Eski masjid" teatr studiyasi) kabi spektakllar Teatrlarimizning eng murakkab mavzularga dadil qo'l urayotganlari, yangi manbalarni ochayotganlaridan dalolatdir. Shu yo'nalishda Alisher Navoiy asarlarini Teatr sahnasida yangicha talqin etish boshlandi. Uchinchidan, jahon va milliy mumtoz dramaturgiya namunalarini zamonaviy talqin va vositalarda sahnalashtirish boshlandi. Navoiy, Shekspir, Molyer, Ayniy, Behbudiy, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy, G'afur G'ulom asarlarining sahnnaviy talqinlari shundan guvohlik beradi. To'rtinchidan, Teatrlarda ilgari qoloqlik belgisi sifatida qarab kelingan etnografiya va folklor manbalari vositalaridan foydalanish butun bir uslubiy yo'nalish sifatida ko'zga yaqqol tashlanib, sahna san'atining milliy o'ziga xosligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. "Algomish" qahramonlik dostoni asosida poytaxt va viloyat Teatrlari sahnalarida yaratilgan 10 ga yaqin spektakllar ham bu yo'nalishning istiqbolidan nishonadir. Beshinchidan, dramaturgiya va Teatrda zamonaviy mavzularda asarlar yaratilib, sahnalashtirish yildan yilga sezilarli tuye olib bormoqda. Zamonaviy mavzular ko'proq melodrama, komediya, tragikomediya janrlari doirasida ishlanmoqda. Ayniqsa, maishiyaxloqiy komediyalar Teatrlar repertuaridan keng o'rin egalladi.


Mustaqillik yillarida Farg'ona, Xiva, Qarshi, Namangan, Termiz sh.larida qo'g'irchoq Teatrlari ish boshladi. Abbas Bakirov nomidagi jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, Andijon bolalar va yoshlar teatri ga aylantirildi (1990).

O'zbekistonda o'tkazilgan "Sharq va G'arb" Teatr san'ati festivali, "Xumo" xalqaro yoshlar teatrlari festivali, "Navro'z", "Andijon bahori" respublika Teatr festivallari, Germaniyaning "Ander Rur" teatri bilan "Muloqot" teatri studiyasi hamkorligida tuzilgan "Ipak yo'li — teatr sayohati" loyihasi asosida o'tkazilayotgan ikki tomonlama anjumanlar, qo'g'irchoq Teatrlari festivallari Teatr san'atining yangi ijtimoiy sharoitda rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. O'zbek teatri jamoalari dunyodagi bir qator mamlakatlarda ijodiy safarda bo'lib, o'zbek Teatr san'ati yutuqlarini namoyish etishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 26 martda e'lon qilingan "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining shu asosda qabul qilgan "O'zbekteatr" ijodiyishlab chiqarish. birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori Teatr san'ati strategiyasini belgilab berdi. Shu asosda "O'zbekteatr" ijodiyishlab chiqarish. birlashmasi, uning qoshida "Atrmadad" jamg'armasi, Teatr ijodkorlari uyushmasi tuzildi. "Teatr" jurnali nashr etila boshladi. Muntazam ravishda turli seminar va festivallar o'tkazilmoqda. Davlatlararo shartnomalarga muvofiq xorijiy mamlakatlardagi ijodiy tashkilotlar, xalkaro birlashmalar bilan aloqalar o'rnatilmoqda Amerikalik rejissyor Devid Kaplan, britaniyalik Maykl Berkut va boshqa o'zbek teatrida, B. Yo'ldoshev Fransiyada, N. Abdurahmonov Isroilda, M. Yusupov AQShda asarlar sahnalashtirdilar. Hamza teatri ga eski bino o'rniiga zamonaviy muhtasham bino qurib berildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 21 sentyabrda e'lon qilingan maxsus farmoni bilan ushbu teatrga "Milliy teatr" maqomi berildi.

O'zbekiston Respublikasida davlat tasarrufidagi 37 ta Teatr va teatr studiyalar, o'nlab nodavlat va xususiy Teatrlar faoliyat ko'rsatadi (2004).

**O'zbekiston Milliy Akademik Teatri**




Oqzbekiston xududida bиринчи professional teatr jamoasi 1913 yilning o`rtalarida Toshkent shhrida shakllanib, 1914 yilning boshlarida ilk milliy p`esa –tomoshani sahnaga kuygan va shu tarika rasman faoliyat boshlagan va dastlab “trupa” faoliyat boshlagan va dastlabki “trupa ” deb atalgan. “Trupa” asli teatr va sirk uyonalishida gi ijodiy jamoa ma`nosini anglatadigan so`z bo`lib, Rossiyada teatr guruxlari “teatr truppalari ” deb atalar edi.

### O`zbekiston Milliy Akademik Teatri



## **O`zbekiston Milliy Akademik Teatri direktori va O`zbekiston Respublikasi xalq artisti:**

Teatr va kino aktyori Yodgor Sa'diev 1946 yilda Toshkentda tug'ilgan. U 1971 yilda Toshkent teatr va rassomlik san'ati instituti Teatr va kino aktyori Yodgor Sa'diev 1946 yilda Toshkentda tug'ilgan. U 1971 yilda Toshkent teatr va rassomlik san'ati instituti (hozirgi M.Uyg'ur nomidagi Toshkent Davlat san'at institutining "Teatr va kino aktyori" fakultetini tugatib, shu yili Hamza nomidagi akademik drama teatriga ishga qabul qilinadi. Otaxon teatrda avval epizodik rollarni o'ynab, o'ziga ancha ishonchi ortgan YO.Sa'diev keyinchalik birin-ketin Karl Moor (SHiller, "Qaroqchilar"), Kochkaryov (Gogol, "Uylanish"), G'ofur (Hamza, "Boy ila xizmatchi"), ertakchi ("Qor malikasi"), Badiuzzamon (Uyg'un va I.Sulton, "Alisher Navoiy"), Bobur (P.Qodirov, "YULduzli tunlar"), Ma'mur (S.Ahmad, "Kelinlar qo'zg'oloni") kabi 60 dan ortiq rollarni ijro etdi. Teatrda bir necha esda qolarli, mukammal obrazlar yaratib, ko'pchilikka tanila boshlagan YO.Sa'diev kinoga ham taklif etiladi. "O'zbekfilm"da suratga olingan "Dilbarim"da Abdusalom, "Engilmas"da SHayx Ja'far, "Minorxo'rlik Jo'ra ovchi"da Tagay, "Armon"da Dada bo'ri, "Manjur varianti"da ("Qozoqfilm") Mayor Mitsumi, "O'n uch terak ko'chasi"da (Dovjenko nomli kinostudiya) Olimjon, "Qizil qumlar" filmida bosh rollardan birini ijro etadi. YO.Sa'dievning tomoshabinlarga yaqindan tanilishida televideni ening roli benihoya katta bo'ldi. "Girdob" va "Ichkuyov" televizion teatridagi Yo'ldosh va O'rino boy obrazlari aktyorga katt a ijodiy parvoz baxsh etdi. "Girdob"dagi taniqli olim Muhiddin Jabborovichning jiyani Yo'ldosh inson hayotini faqat sevinchlardan iborat deb tushunadigan, engil elpi hayot kechirish yo'lida hech narsadan toymaydigan odam sifatida gavdalananadi. U o'zining ko'p yillik ilmiy ishini ro'yobga chiqara olmay, bu mashaqqatli yo'lda katta to'siqlarga duch kelayotgan yosh olim Aziz Qosimovning xotiniga ko'z olaytiradi. Uning oilasini buzib yuborishiga oz qoladi. Aziz Qosimovning ilmdagi kashfiyotiga jiddiy g'ov bo'layottan konservator olim, qahri qattiq inson Muhiddin Jabborovich ham jiyaninng bu noplak ishlariga chiday olmay, uning yuziga bir tarsaki tushiradi. Yo'ldosh xarakteridagi ana shunday noplak xususiyatlar YO.Sa'diev ijrosida ishonchli tarzda ifoda etilgan. YO.Sa'dievni zangori ekran orqali millionlab teletomoshabinlarga yaqindan tanitgan ham Yo'ldosh, O'rino boy obrazlar bo'ladi. SHundan keyin u O'zbekiston televideniesida suratga olingan videofilmlar — "Abu Ali Ibn Sino"da



Ibn Sino, "Alisher Navoiy"da Badiuzzamon, "So'nggi o'q"da Jahongir kabi ko'pgina rollarni o'ynadi. Teatr, kino va televideoneda rollar ijro etib, aktyorlik san'atini puxta egallagan YO.Sa'diev rejissyorlik sohasida ham faoliyat ko'rsatib, teatr sahnasida "Tungi mehmon", "Aldagani xotin yaxshi", "Hayot — eshik ortida" kabi spektakllarni sahnalashtirdi. 1998 yildan beri O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi qoshidagi "Qalqon" studiyasiga badiiy rahbarlik qilayotgan YO.Sa'diev yozuvchi Tohir Malikning "SHaytanat" romani asosida ko'p seriyalik "SHaytanat" videofilmini rejissyor sifatida suratga oldi va o'zi Asadbek rolini ijro etib, kinoda jiddiy muvaffaqiyatga eri<sup>ndi</sup>. 2001 yilda "Qalqon" studiyasida YO.Sa'diev rejissyorligida "SHaytanat" videofilmining 5 seriyalik ikkinchi qismi suratga olinib, madaniy jamoatchilik ko'rigiga taqdim etildi. YOgor Sa'dievning 30 yillik samarali ijodiy mehnati munosib takdirlandi. U 1989 yilda Respublika Davlat mukofotiga, 1998 yilda "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi.

## Zamonaviy teatr qanday?

Dastlab (qadimgi yunonlar orasida) aynan ikkita teatr janri mavjud edi: tragediya va komediya. Keyin, siz bilganingizdek, dunyoga nima bo'ldi: nasroniylik, xalqlarning buyuk ko'chishi, salib yurishlari, Uyg'onish davri, vabo, texnologik taraqqiyot, Darwin, Freyd, Qora maydon, kino, jinsiy inqilob, Internet - va yakkalik ufqda ko'rindi. 21-asrga kelib, teatrning aql bovar qilmaydigan xilma-xilligi shakllandi. Va ularning hammasi aralashib ketishdi. Ularni qandaydir tarzda tushunish uchun biz hamma narsani ochib, javonlarga qo'yishga harakat qilamiz.

Matn: Anton Xitrov, Aleksey Kiselev

## Drama

Bu qanday ko'rinishga ega: tomoshabinlar oldida sahnada aktyorlar fantastik hikoyalarni o'ynashadi. Bu qayerdan kelgan: Tarixda birinchi yozilgan spektakllar dramatikdir. Darhaqiqat, qadimgi teatrtdagi spektaklning ma'nosi - bu spektaklning deklomativ ijrosi. Dramaturiyada asosiy narsa - spektakl, uning syujeti va syujeti; Boshqacha qilib aytganda, hikoya qilinmoqda. Biroq, 20-asrda rejissyorlik kasbining paydo bo'lishi bilan hikoya qilish usuli hikoyaning o'zidan kam emas edi. Aynan yigirmanchi asrda teatr haqidagi barcha asosiy nazariy asarlar yozildi; bu yerda siz ularning barchasini o'qishingiz mumkin. Nimani ko'rish kerak: Eski uslubda hikoya qiluvchi yuqori sifatli spektakllar Moskva teatrlari teatr san'ati studiyasida Sergey Jenovach va Pyotr Fomenko ustaxonasida sahnalashtirilgan. Eng progressiv dramatik spektakllar - "Gogol markazi", TsIM va Sankt-Peterburg BDT im. Tovstonogov. Eng taniqli rejissyor-tarjimonlar: Konstantin Bogomolov,

Kirill Serebrennikov, Yuriy Butusov. Moskva va Sankt-Peterburgdan tashqarida ham juda ko'p qiziqarli narsalar mavjud.

## **Opera**

U qanday ko'rinishga ega: ulkan sahnada hashamatli liboslarda erkaklar va ayollar orkestr jo'rligida qo'shiq aytishadi. Qayerdan kelib chiqqan: Umuman olganda, opera 17-asr boshlarida Italiyada teatr san'atining bir turi sifatida shakllangan. Agar dramada asosiy narsa hikoya (yoki uning talqini) bo'lsa, operada bu musiqa (va uning talqini). Vaholanki, bundan bir yarim asr muqaddam Rixard Vagner butun dunyoni opera butun san'at, eng avvalo, dramaturgiya va musiqa yig'ini ekanligiga ishontirdi va ularni ishontirdi. Agar 20-asrda dramaturgiyada rejissyor taxtni egallagan bo'lsa, operada ikki tomonlama kuch shakllangan: rejissyorlik operasi fenomeni paydo bo'lgan, lekin dirijyor o'z mavqeini yo'qotmagan. Nimani ko'rish kerak: Ko'proq yoki kamroq an'anaviy opera spektakllarini Bolshoy Teatrida, Muzteatre im da topish mumkin. Stanislavskiy va Nemirovich-Danchenko va Mariinskiy teatrida. Rossiyadagi eng muhim opera markazlaridan biri Teodor Currentzis boshchiligidagi Perm opera va balet teatridir. Janr hududidagi eng ekstremal tajribalar Moskvadagi Stanislavskiy elektroteatrida to'plangan. Rossiyadagi eng qiziqarli operalar haqida ko'proq o'qing.

## **Yangi musiqali teatr**

Bu qanday ko'rinishga ega: Siz bu musiqiy kompozitsiya ekanligiga ishonchingiz komil va uni nafaqat quloq bilan, balki ko'z bilan qabul qilish kerak - lekin bu opera emas. Qayerdan paydo bo'lgan: Yangi musiqali teatr - XX asrda bastakorlar ixtiro qilgan va operaga muqobil sifatida bugungi kunda ixtiro qilishda davom etayotgan barcha teatr janrlarining umumiy nomi. Masalan, 50-yillarda paydo bo'lgan instrumental teatr: unda aktyor va musiqachi bir kishi, musiqa asbobini o'ynash esa vizual diapazonning bir qismidir. Nimani ko'rish kerak: Rossiyada hozirgacha bunday spektakllar juda kam: "Stanislavskiy elektroteatri" da Vladimir Rannevning "Nasri" va "Dramatik san'at maktabi" dagi Petr Ayduning "Ovozli manzaralari" eski teatr shovqin mashinalari bilan. ko'radi. Evropada va xalqaro festivallarda Xayner Gebbels va Kristof Martalerning chiqishlariga e'tibor bering.

## **Balet**

Bu qanday ko'rinishga ega: tor kiyim kiygan nozik erkaklar va ayollar musiqa ostida nafis harakat qilishadi. Qayerdan kelgan: 17-asrda Frantsiyaning sud o'yin-kulgilaridan. Raqs texnikasi musiqa bilan birga murakkablashdi; 19-asrga kelib,

balet nihoyat musiqaning jismoniy timsoli san'ati sifatida shakllandi. Klassik baletda (zamonaviy raqsdan farqli o'laroq) raqqosaning texnikasi birinchi o'rinda turadi. Zamonaviyda - xoreografning mualliflik usuli. Nimani ko'rish kerak: Klassikalar uchun siz Moskvadagi Bolshoy teatriga, Sankt-Peterburgdagi Mariinskiy va Mixaylovskiyga borishingiz kerak. Zamonaviy uchun - Moskva musiqali teatrida. Stanislavskiy va Nemirovich-Danchenko, Yekaterinburg "Ural opera baleti" va Novosibirsk NOVAT (ha, ular hali ham ajoyib balet truppasiga ega).

## **Operetta va musiqa**

Bu qanday ko'rinishga ega: quvnoq san'atkorlar quvnoq qo'shiq aytadilar va raqsga tushishadi. U qaerdan paydo bo'lgan: Operetta - eng beparvo mini-opera, zamonaviy ko'rinishida u 19-asrning o'rtalarida alohida teatr janri sifatida shakllangan. Musiqa nisbatan yaqinda paydo bo'lgan - taxminan yuz yil oldin; uning ota-onasi - musiqa zali, estrada shousi, kabare, burlesk va asr boshidagi boshqa burjua o'yin-kulgilari. Muziklning vazifasi oddiy bo'lganidek, tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada qiyin: ketma-ket yuz marta to'la zalni yig'ish, ya'nii hamma uchun tushunarli bo'lish, barchani xursand qila olish. Nima tomosha qilish kerak: Moskva operettasida "Janob X" va "Die Fledermaus" kabi klassik operettalar namoyish etiladi. Haqiqiy myuzikl uchun Nyu-York yo Londonga uchishingiz kerak. Biroq, Stage Entertainning Moskva filiali Musiqali teatrda katta muvaffaqiyatlar ro'y beradi va ajoyib "Sirk malikasi" va "Zolushka haqida" spektakllari namoyish etiladi.

## **Postdramatik teatr.**

U qanday ko'rinishga ega: Demak, bu teatrmi yoki yo'qligini aniqlashning iloji yo'q. Qayerdan kelgan: Bu atama nemis teatr tanqidchisi Xans-Tis Leman tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning doktorlik dissertatsiyasining nomi 21-asrda teatr haqidagi eng mashhur kitobga aylandi. To'g'rirog'i, Leman dramatik dramadan keyingi teatrni 1960-yillarda boshlangan davr deb ataydi, o'shanda teatr dramaturgiya, syujet va umuman hikoyaning ustuvorligidan xalos bo'lgan. Asarda hikoyaning mavjudligi endi kerak emas. Postdramatik teatr davri rejissyorining eng yorqin misoli Robert Uilsondir. Nimani ko'rish kerak: Rossiyada Leman kitobining nomi tarjimasi paydo bo'lganidan ancha oldin ma'lum bo'lgan shu sababli, bizning mamlakatimizda ko'proq yoki kamroq eksperimental hamma narsa sirtdan post-

dramatik teatr deb atala boshlandi. Bu atamaning ruscha ma'nosida dramatik dramadan keyingi teatrning qahramoni - Sankt-Peterburg "post teatri" ning yaratuvchisi Dmitriy Volkostrelov; birinchi navbatda, siz "Men ozodman", "DJ Pavel" va "Hech narsa haqida ma'ruza" ga borishingiz kerak. Moskvada Vsevolod Lisovskiyning "Ma'lum mavzuda sukunat" spektakli barcha chegara hodisalariga qiziquvchilarga tavsiya etiladi.

## Hujjatli teatr

Bu nimaga o'xshaydi: Bizga haqiqiy narsa ko'rsatiladi yoki haqiqatan ham sodir bo'lgan narsa haqida gapiriladi.U qayerdan kelgan: Birinchi to'liq hujjatli spektakl – "Hamma narsaga qaramay" barcha zamonlar va xalqlar inqilobchilari haqidagi spektakl 1925 yilda nemis rejissyori Ervin Piskator tomonidan qo'yilgan. 20-yillardagi sovet avangard teatri hujjatli filmlardan ham foydalangan. Ammo badiiy bo'limgan teatrning haqiqiy gullab-yashnashi 60-yillarda Germaniya, Buyuk Britaniya va AQShda boshlangan.Nimani ko'rish kerak: Bugungi kunda eng zo'r teatrlashtirilgan hujjatli filmlar Rimini Protokoll guruhidir. Agar siz ularni biron bir festivalning afishasida ko'rsangiz, albatta boring. Moskvada "Drumming" va, albatta, "Theater.doc", Sankt-Peterburgda - "Yoqilg'i" spektakllarini tomosha qilishingiz kerak. Hududlarda "shaharlik so'zma-so'z" janri mashhur - shahar ahолиси bilan suhbatga asoslangan spektakl; muvaffaqiyatli misollar Voronej "Shahar kuni" va Novosibirsk "chang".

## Vizual teatr

Bu qanday ko'rinishga ega: Bu sahnadagi jonsiz narsalar - yorug'lik, rang, narsalar va ular yaratilgan materiallar sizni odamlardan kam emas va, albatta, so'zlardan ko'proq band qiladi.Qayerdan kelgan: Vizual inqilob teatrni 19-20-asrlar bo'yida rejissyorlikning paydo bo'lishi bilan birga qamrab oldi. O'tgan asr boshidagi ba'zi afsonaviy spektakllardan, masalan, Gordon Kreygning Moskva badiiy teatridagi "Gamleti" va "Quyosh ustidan g'alaba" futuristik operasidan - zamondoshlar kosmosning echimini rassomlar va rassomlarning asarlaridan yaxshiroq eslashdi. spektaklning talqini. Amerikalik Robert Uilson hozirgi ko'rinishida vizual teatrning

kashshofi hisoblanadi. Nimani ko'rish kerak: Uilsonning o'zi - Moskva xalqlar teatrida "Pushkinning ertaklari" va Perm operasida "Traviata". Va shuningdek - Dmitriy Krimovning Moskvadagi spektakllari va Sankt-Peterburgdagi AKHE muhandislik teatri.

## **Ko'g'irchoq teatri / Animatsiya teatri**

Bu qanday ko'rinishga ega: kattalar turli xil narsalarni xotirjamlik bilan boshqaradi. Qayerdan kelgan: Ko'rinishidan, bolalikdan. Deyarli har bir madaniyatda Xitoy va Hindistondan Italiya va Kambodjagacha bo'lgan o'ziga xos qo'g'irchoq teatri an'analari mavjud. Umumiy tamoyil: hayratga tushgan ommaning ko'z o'ngida jonsiz tirik bo'ladi. Ommabop noto'g'ri tushunchadan farqli o'laroq, qo'g'irchoq teatri bolalarga qaratilgan emas. Bu va boshqa noto'g'ri tushunchalar haqida bu erda o'qishingiz mumkin. Nimani ko'rish kerak: Moskvada - Boris Konstantinovning teatrdagi chiqishlari. Obraztsova va barchasi "Soya" teatrida. Sankt-Peterburgda ikkita ajoyib mustaqil qo'g'irchoq teatrlari mavjud: "Qo'g'irchoq formati" va Karlsson Haus, Bolshoy qo'g'irchoq teatri esahar yili kuzda "BTK-fest" eng yaxshi xalqaro qo'g'irchoq teatri festivaliga mezbonlik qiladi. Butun mamlakat bo'ylab sahnalashtirilgan rejissyorlar orasida mavzu teatrining (animatsiya teatri / tasviriylar) so'zsiz championi - Yana Tumina bor.

## **Yangi sirk**

Bu qanday ko'rinishga ega: oddiy tsirk kabi, faqat yanada chiroyli, mazmunli va o'qitilgan hayvonlarsiz. Eski sirk aql bovar qilmaydigan mahorat haqida, yangisi esa butun g'oya, estetika va kayfiyat haqida.

U qaerdan paydo bo'lgan: Yangi sirk 70-yillarda Charli Chaplinning qizi Viktoriya va uning turmush o'rtog'i Jan-Batist Tyerri tomonidan ixtiro qilingan. Va o'n yil o'tgach, Cirque du Soleil Kanadada paydo bo'ldi - bu sohada ishlaydigan eng mashhur va muvaffaqiyatli kompaniya. Yangi sirk nima va u qayerdan paydo bo'lganligi haqida ko'proq ma'lumot olishingiz mumkin. Nimani ko'rish kerak: Rossiyadagi yangi sirkning asosiy yuzi - masxaraboz Slava Polunin va Slava Poluninning asosiy spektakli, agar siz to'satdan bilmagan bo'lsangiz, bu "qor shousi". Shuningdek, Moskvadagi "Antik sirk" va Sankt-Peterburgdagi "Upsala

sirki" ni ham ko'rishingiz mumkin. Va Cirque du Soleil gastollarini o'tkazib yubormang: ular Rossiyada oddiy mehmonlar emas.

## Mersiv teatr

Bu qanday ko'rinishga ega: Siz (odatda) niqob yoki naushnikda erkin harakatlanasiz, ishlash sizning atrofingizda sodir bo'ladi. Qayerdan kelgan: Immersive so'zi ingliz tilidan "immersing" deb tarjima qilingan. O'tgan asrda Evropa va AQShda turli xil interaktiv teatr shakllari bilan tajribalar bir necha bor o'tkazildi, ammo 21-asrning boshlarida Britaniyaning Punchdrunk guruhi paydo bo'lishi va ularning "Boshqa uyqu yo'q" flagman loyihasi bilan amalga oshirildi. mustaqil yo'nalish sifatida immersiv teatr haqida gapira boshlaydilar. Saroyga kiraverishda tomoshabinlar niqob kiyib, har bir burchakda qandaydir sirli voqeа sodir bo'ladigan qavatlarni aylanib chiqishadi. Nimani ko'rish kerak: Moskvadagi "Uyqu yo'q" filmining to'g'ridan-to'g'ri nusxasi – Ibsenning

"Arvoхlar" spektakli asosida "Qaytishdi" immersiv shou; Punchdrunk kanoniga aniq rioya qilish. G'ayrioddiy va o'ziga xos bo'lgan Krasnodarning "Bir teatri" yaqinda Sergey Chexovning "O'liklar hayoti" nomli immersiv spektaklini namoyish etdi: jamoatchilikka keyingi hayot va orqaga sayohat taklif etiladi. Ko'proq misollar uchun, bizning Rossiyadagi eng qiziqarli 10 ta immersiv spektakl tanloviga qarang.

## Ko'cha teatri

U qanday ko'rinishga ega: Yorqin yasagan cho'zilgan sayrchilar, masxarabozlar va qilich yutuvchilar pufakchalarni puflab, duxovkalar orkestrining chayqalayotgan marshlariga o't qo'yishadi. Kelib chiqishi: O'rta asr Evropasi. Teatr binolari qurish, sayr qiluvchi truppalar maydonlarda sahnalar qurish, omma e'tiborini jalg qilish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish hech kimning xayoliga kelmagan. Kvadrat teatr dan sirkgacha bir qadam, lekin stend-up, karnaval va eng muhimmi, kelib chiqishini Italiya Uyg'onish davri maydonlarida commedia dellning improvizatsiya spektakllarida osongina topish mumkin bo'lgan an'anaviy sitkomga qadar. badiiy truppalar. Nimani ko'rish kerak: Issiq mavsumda hamma joyda ko'cha teatrлari festivallari o'tkaziladi. Eng o'ziga xos rus guruhlari - Oliy Brothers, The

Fire People, Muscovites Liquid Theatre va Sankt-Peterburg AKHE ajoyib ko'cha tomoshalari.

### **Saytga xos teatr**

Bu qanday ko'rinishga ega: fabrikada, o'rmonda yoki savdo markazida san'atkorlar maxsus yig'ilgan tomoshabinlar uchun tayyorlangan narsalarini ijro etishadi. Bu qayerdan kelib chiqqan: Saytga xos atama taxminan "fazoga yo'naltirilgan" degan ma'noni anglatadi. Teatr sahnalaridan tashqarida spektakllarni namoyish etish tajribasi teatrning butun tarixi davomida sodir bo'lган, ammo o'tgan asrning o'rtalarida voqeа-hodisalar paydo bo'lishi bilan birga o'ziga xos teatr o'zini maxsus yo'nalishga ajratdi. Agar drama teatrinda spektaklning asosini spektakl tashkil etsa, musiqali teatrda bu partitura bo'lsa, u holda saytga xos teatrda uning barcha xususiyatlari: tarixi, akustikasi, arxitekturasi, atmosferasi va boshqalarga ega bo'lган makon hisoblanadi. Nimani ko'rish kerak: Moskvada - Rimini Protokoll tomonidan "Remote Moskva"; spektakl, uning manzarasi shahar ko'chalari. Sankt-Peterburgda "Teatr" nomli ko'cha-art teatri bor. Takeaway", barcha chiqishlari saytga xosdir. U erda har yili o'tkaziladigan "Access Point" festivali teatr binolari tashqarisida (liftlarda, qayiqda, savdo markazlarida) spektakllarga ixtisoslashgan. Va Perm o'lkasining Gubaxa shahrida peyzaj festivali bo'lib o'tadi, uning barcha chiqishlari quyosh botganda ochiq havoda o'ynaladi.

### **Inklyuziv teatr**

Bu qanday ko'rinishga ega: maxsus ehtiyojli odamlar ishtirokidagi syurreal spektakllar. U qaerdan paydo bo'ldi: Art terapiya - bu XX asrning mulki. Xususan, rivojlanishida nuqsonlari bo'lган odamlarning ijtimoiylashuvi va shaxsiy o'sishiga qaratilgan teatr amaliyotlari bundan o'ttiz yil oldin keng tarqalgan. Nimani ko'rish kerak: Moskvada "Begunoh teatr", "Ochiq san'at", ITS "Krug" va "Krug II" maxsus aktyorlar ishtirokida shunday spektakllarni yaratadi, ulardan ko'zni uzib bo'lmaydi; juda chiroyli, ta'sirchan va ba'zan sof professional ma'noda ajoyib. Sankt-Peterburgda rejissyor-ziyoli Boris Pavlovich vaqtı-vaqtı bilan turli joylarda Anton is Right Here jamg'armasi palatalari bilan spektakllarni chiqaradi; uning yangi (biroz immersiv) ishi Conversations "Oltin niqob"ga nomzod.

### **Radioteatr**

U qanday ko'rinishga ega: oddiy drama teatri kabi, yozuvda faqat aktyorlarning ovozini eshitasiz. Va ba'zida muallifdan matn hali ham mayjud. U qaerdan paydo bo'lган: Radioteatr - bu o'z-o'zidan ravshan g'oyaki, u eshittirish boshlanishi

bilanoq tug'ilgan. 1920-1930-yillarda, magnitli ovoz yozuvi tarqalishidan oldin, bu so'zning to'liq ma'nosida teatr edi: san'atkorlar jonli ijroda spektakl ijro etishdi. Nimani tinglash kerak: Yangidan - Lyubimovka festivali tomonidan Glagolev FM radiosи bilan bирgalikda chиqariladigan Stereoteatr podkastining istalgan qismi. Klassiklardan - Vysotskiy she'rларидаги qо'shiqlar bilan "Alisa mo"jizalar dunyosida" va Anatoliy Efros tomonidan sahnalashtirilgan "Martin Eden".

## Sintetik teatr

U qanday ko'rinishga ega: qo'g'irchoq musiqasi. Hujjatli sirk. Opera xonandalari va drama artistlari ishtirokidagi balet. Har qanday kombinatsiya. Bu qayerdan paydo bo'ldi: XX asrning deyarli barcha teatr islohotchilari Aleksandr Tairovdan Robert Uilsongacha sintetik teatr, ya'ni barcha asosiy janrlar bir vaqtning o'zida birlashtirilgan teatr g'oyalari haqida gapirdilar. Bu bugungi kunda sof shakldagi janrlarning deyarli yo'qligiga olib keldi. Shoir Oksimiron to'g'ri ta'kidlaganidek: "Hamma narsa bir-biriga bog'langan". Nimani ko'rish kerak: Bolshoy Teatrdagi Kirill Serebrennikovning Nureyev drama aktyorlari ishtirokidagi balet va operadir. Kostromadagi Dialogue Dance kompaniyasining "Marusya" stend-up va zamonaviy raqs gibrididir. Dmitriy Volkostrelov va Dmitriy Renanskiyning "Tashqi va ichkaridan kelgan rassom" asari madaniy tadqiqotlar installatsiyasidir. Agar o'zingizni Brodveyda ko'rsangiz, "Qirol sher" filmini tomosha qiling. Bu qo'g'irchoq teatri.